

PROFESSIONAL TAILIM TIZIMIDA DUAL TAILIMNI TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Aytjanov Kasim

Осиё халқаро университети

Педагогика ва психология факультети

1- курс магистранти

Annotatsiya. Dual ta'lim - kasbiy ta'limning maxsus turi bo'lib, o'qitishning amaliy qismi ish joyida, nazariy qismi esa kasbiy ta'lim tashkiloti negizida amalga oshiriladi. Kadrlar tayyorlashning dual tizimi jahon amaliyotida o'zini namoyon qildi va bugungi kunda u butun darajasida dolzarb deb tan olingan. Maqolada Professional tailim tizimida dual tailimni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, ta'lim jarayoni, loyiha, professional ta'lim.

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarni esa bevosita ish joyida, yani tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limning asosiy maqsadi, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini tayyorlashdan iborat.

Dual ta'lim sharoitida ta'lim nafaqat o'quv muassasalari, balki sanoat korxonalari, firmalar, tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Dual ta'lim tizimining dasturlari nazariya va amaliyot tamonidan sinovdan o'tgan —nou-xauni birlashtiradi. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish tamoillarini tizimlashtirish ko'zda tutilgan.

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustivor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromatlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limning asosiy maqsadi

ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes sub'yektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash - Dual ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Dual ta'limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalar (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash;

- o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxonalar (tashkilot)larda hamda nazariy va o'quv-amaliy qismini Ta'lim muassasalarida tashkil etish;

- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish;

- korxonalar (tashkilot)lar hamda Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;

- ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;

- ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;

- kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;

- korxonalar (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;

- bitiruvchilarni baholashda korxonalar (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;

- turli yoshdagi aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo'yicha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Dual ta'limni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Dual ta'lim tashkil etiladigan korxonalar (tashkilot)larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida aniqlash;

- Korxonalar (tashkilot) va Ta'lim muassasasi hamda korxonalar (tashkilot) va o'quvchi o'rtasida shartnoma tuzish;

- O'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

- Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

- Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;

- Mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda

Dual ta'lim jarayonini tashkil etish;

- Dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'ysin hamda kelishilgan.

Dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'ysin hamda kelishilgan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigini tasdiqlangan va o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlangan

Professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatildi va professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etilishi ustidan tizim. Dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etilgan.

Korxonalarni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun ular dual ta'lim shakli bo'yicha ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda kadrlar tayyorlashda ishtirok etishlari zarur. Ta'limning dual modeli ish beruvchi tashkilotlarni ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi sifatida kasb-hunar ta'limi tizimiga jalb qilishni nazarda tutadi. So'nggi paytlarda mamlakatimizda juda ko'p gapirilayotgan dual ta'lim so'nggi davrlarning innovatsion mahsuloti emas, chunki u ko'plab Yevropa davlatlari, xususan, quduqlar tomonidan o'z korxonalari uchun kadrlar tayyorlash tizimida uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan. -ma'lum misol - Germaniya.

Bugungi kunga kelib, bu muammo mintaqaviy va mahalliy darajada mustaqil va juda muvaffaqiyatli hal qilinmoqda, lekin ko'pincha ishchilarni tayyorlash jarayoni hisobga olinadi. Hududlarda "Bazaviy korxonalar to'g'risidagi nizom" kabi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish tajribasi bor; "Mentorlik to'g'risidagi nizom"; "Dual ta'lim to'g'risidagi nizom"; "Ish joyida o'qitishni tashkil etish to'g'risidagi nizom". O'quv jarayonini amalga oshirishning tarmoq shakli bo'yicha shartnomalar va talabalar shartnomalariga misollar mavjud.

Shu barobarda, professional yaratish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda takomillashtirilib borish maqsadida har bir muassasa ma'muriy xodimlarini innovatsion elektron platformalar yaratish bo'yicha Dual ta'limini o'qitish doimiy ravishda malakasini oshirish tizimini joriy qilinishi pedagog xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga zamin yaratadi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, agar mas'uliyatning bir qismini biznes hamjamiyati vakillari zimmasiga olgan bo'lsa, erishish mumkin. Shu bilan birga, davlat, ish beruvchilar va o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qo'shma zo'nasini yaratish kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash

lozimki, hozirgi zamon globollashuv sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Nurumbetov, A. N., Mambetova, S. M., & Djumaniyazova, S. I. (2022). DUAL TA'LIMTA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING SAMARALI USULI! ZAMONAVIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHISHNI QO'LLASH PRINSIPLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 598-601.
2. Niyazimbetovich, N. A., Madraimovna, M. S., & Qurbanbaevna, D. G. (2022). Developing Competencies in Students of All Ages through Communication and Hands-On Experience. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 447-450.
3. Madraimovna, M. S. FORMATION OF INNOVATIVE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
4. Мамбетова, С. М. (2019). ПРОБЛЕМА ВЫБОРА ПРОФЕССИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 48-49).